

SANOAT TARMOQLARIDA YANGI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHDA INNOVATSION YANGILIKLARDAN FOYDALANISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI

Djuraev Murotjon Sotivoldiyevich

Tadbirkor

e-mail: kaspiysvet@gmail.com

+998974232629

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19815870>

Annotatsiya: Ushbu tezisda sanoat korxonalarida yangi mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish, tannarxni optimallashtirish hamda bozor talablariga moslashuvchan ishlab chiqarish tizimini shakllantirish omillari asoslab berilgan. Shuningdek, innovatsion faoliyatni rivojlantirishda ilmiy tadqiqotlar va tijorat amaliyoti integratsiyasining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar:

sanoat iqtisodiyoti, innovatsiya, iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik, modernizatsiya, lokalizatsiya, tannarx, ishlab chiqarish strategiyasi, ilmiy tadqiqotlar va tijorat amaliyoti integratsiyasi

Kirish

Bugungi globallasuv sharoitida har qanday davlatning iqtisodiy barqarorligi va o‘sishi uning sanoat ishlab chiqarishi qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasida sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni jadallashtirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali mahsulot tannarxini kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, jadal rivojlanayotgan global iqtisodiyot sharoitida innovatsion g‘oyalarni tezkor ravishda amaliyotga joriy etish uchun ilmiy tadqiqotlar va tijorat tajribalarining uzviy integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Sanoat tarmoqlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ishimiz hukumat tomonidan chiqarilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni ijro etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ushbu strategik hujjatlar va investitsion dasturlar sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini tushirish, resurs tejavchi innovatsiyalarni qo‘llash va pirovardida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun huquqiy va iqtisodiy fundament bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy globallasuv va geo-iqtisodiy transformatsiyalar davrida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi hamda makroiqtisodiy barqarorligi bevosita sanoat sektorining diversifikatsiyalashganlik darajasi va texnologik salohiyati bilan uzviy bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasida sanoat tarmoqlarini tizimli modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish tarkibini fundamental transformatsiyalash hamda yuqori texnologik (high-tech) segmentlarda

yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish davlat iqtisodiy strategiyasining strategik vektorini tashkil etadi.

Hozirgi kon'yunkturada sanoat sub'ektlarining innovatsion faolligini institutsional qo'llab-quvvatlash, resurs tejovchi va «yashil» texnologiyalarni ishlab chiqarish sikliga chuqur integratsiya qilish ob'ektiv zaruriyatga aylandi. Bu, o'z navbatida, mahsulot tannarxini optimallashtirish, operatsion xarajatlarni minimallashtirish va korxonalarining rentabellik ko'rsatkichlarini ekstensiv yo'ldan intensiv rivojlanish modeliga o'tkazish imkonini beradi.

Ayniqsa, bilimlar iqtisodiyoti (knowledge economy) shakllanayotgan sharoitda, innovatsion g'oyalarni fundamental tadqiqotlardan real sektorga transformatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Ilmiy-tadqiqot ishlanmalari (R&D) bilan sanoat klasterlari o'rtasidagi vertikal va gorizontaal integratsiyani kuchaytirish, innovatsiyalarni tijoratlashtirish zanjirini yaratish milliy sanoatning global qiymat zanjiridagi (global value chain) mavqeini mustahkamlashning asosiy drayveri bo'lib xizmat qiladi.

Sanoat iqtisodiyotining asosiy vazifasi ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish hajmini oshirishdan iborat. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikka erishish quyidagi o'zaro bog'liq yo'nalishlar asosida amalga oshiriladi:

- Innovatsion mahsulot yaratish va strategik foyda modeli: Yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishda foyda modeli qisqa muddatli (1–2 yil) natijalarga emas, balki o'rta va uzoq muddatli (3–5 yil) strategik rejalashtirishga asoslangan bo'lishi zarur. Bu yondashuv investitsiyalarning barqaror qaytishini ta'minlab, korxonaning uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi.
- Bozorni chuqur tahlil qilish va talabga moslashuvchanlik: Mahsulot ishlab chiqishda foydalanuvchilar va sotuvchilar ehtiyojlarini chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali mahsulotning funksional xususiyatlari, narx siyosati va bozorga kirish strategiyasi optimal darajada shakllantiriladi.
- Texnologik yangilanish va ishlab chiqarish samaradorligi: Eskirgan uskunalarni o'rniga zamonaviy, avtomatlashtirilgan va raqamli texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi, energiya sarfini kamaytiradi hamda mahsulot sifatini yaxshilaydi. Ishlab chiqarish jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar esa oldindan puxta rejalashtirilishi zarur.
- Investitsiya va ishlab chiqarish hajmini optimallashtirish: Sarmoya imkoniyatlarini to'g'ri baholash va ishlab chiqarish hajmini optimal rejalashtirish korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Investorlar uchun yuqori rentabellik va barqaror daromad keltiruvchi loyihalarni shakllantirish muhimdir.
- Lokalizatsiya va resurslardan samarali foydalanish: Mahalliy xomashyo va ishchi kuchidan samarali foydalanish bilan birga, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmagan butlovchi qismlarni xorijdan import qilish orqali ishlab chiqarish samaradorligini saqlab qolish zarur. Logistika, transport va bojxona xarajatlarini optimallashtirish ham muhim omil hisoblanadi.
- Mahsulotning konstruktiv moslashuvchanligi va funktsionalligi: Mahsulot butlovchi qismlari va korpuslarining moslashuvchanligi yuqori darajada bo'lishi, turli iste'molchi ehtiyojlariga moslashish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, mahsulot funksional jihatdan mukammal, standartlarga mos va foydalanishda qulay bo'lishi talab etiladi.

- Ergonomika va foydalanish qulayligi: Mahsulotdan foydalanish jarayonini soddalashtirish, foydalanuvchilar va montaj ustalari uchun qulay sharoit va imkonlar yaratish mahsulotning amaliy qiymatini oshiradi va uning bozor muvaffaqiyatini ta'minlaydi.
- Mahsulotning jozibadorligi va marketing omillari: Mahsulot foydalanuvchilar tomonidan oson qabul qilinadigan darajada puxta ishlab chiqilishi, dizayni zamonaviy va jozibador bo'lishi zarur. Mahsulot nomining to'g'ri tanlanishi ham marketing strategiyasining muhim elementi hisoblanadi.
- Raqobatbardoshlikni ta'minlash: Yangi mahsulotlar mavjud analoglardan tashqi ko'rinishi, texnik xususiyatlari, sifati va narxi bo'yicha ustun bo'lishi lozim. Bu esa bozorda muvaffaqiyatli pozitsiyani egallash imkonini beradi.
- Moslashuvchan ishlab chiqarish va individual buyurtmalar: Bozorda mavjud standart mahsulotlarni ixchamlashtirish va zarurat tug'ilganda individual buyurtmalar asosida ishlab chiqarish uchun imkoniyatlarini moslashtirish korxonalarining raqobatbardoshligini oshiradi.
- Texnik talablar va sifatni saqlash: Yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishda barcha texnik talablar to'liq bajarilishi bilan birga, mahsulot sifatini pasaytirmasdan iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash zarur.
- Eksport salohiyati va tashqi bozorlar: Ichki bozor bilan bir qatorda qo'shni davlatlar talabi va ularga eksport qilish imkoniyatlarini oldindan hisobga olish muhimdir. O'zbekiston qonunchiliklaridagi eksport qiluvchi korxonalar uchun mavjud imtiyozlardan samarali foydalanish tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshiradi.
- Ilmiy tadqiqotlar va tijorat amaliyotlari integratsiyasi: Innovatsion rivojlanishning muhim sharti sifatida ilmiy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarish jarayonlariga tezkor joriy etish bilan birgalikda soha mutaxasislari hisoblanadigan tajribali tijorat amaliyotlarini fikr muloxazalariga murojat qilish talab etiladi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, sanoat tarmoqlarida yangi mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy samaradorlikni oshirish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, bozor talablarini chuqur tahlil qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish hamda investitsion jozibadorlikni oshirish orqali korxonalar barqaror rivojlanishga erishadi. Natijada mahsulot tannarxi kamayadi, raqobatbardoshlik oshadi va milliy iqtisodiyotning o'sishiga xizmat qiluvchi yuqori samarali sanoat tizimi shakllanadi. Eng muhimi ilmiy tadqiqotlar va tijorat amaliyotlari integratsiyasi orqali iqtisodiy samaradorlik o'sishi 2x, 3x tezlikda amalga oshadi!